

NEMIS TILI FANINING O‘ZBEKISTONDA CHET TILI SIFATIDA O‘QITILISH O‘RNI

Madaminova Mashhuraxon Abdug‘appor qizi

Abduolimova Marhabaxon Abduxalil qizi

FarDu talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nemis tili fanini chet tili sifatida o‘qitilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *nemis tili, fransuz tili, ingliz tili, tomograf, kasbiy harakatchanlik, kommunikativ imkoniyat, Germaniya, nemis madaniyati, poliglossiya, integratsiya*

Аннотация: *Данная статья посвящена преподаванию немецкого языка как иностранного.*

Ключевые слова: *немецкий, французский, английский, томограф, профессиональная мобильность, коммуникативные способности, Германия, немецкая культура, полиглоссия, интеграция.*

Annotation: *This article is about the teaching of German as a foreign language.*

Keywords: *German, French, English, tomograph, professional mobility, communicative ability, Germany, German culture, polyglossia, integration*

Har doim til o‘rganish jamiyatda bag‘oyat muhim omillardan biri hisoblanib kelingan. Til muloqot kalitidir. Xalqaro munosabatlar avj olib kelayotgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida tahsil olayotgan o‘quvchi va talabalar odatda uch tilni o‘rganadilar. “Idrokli yoshlarimizning ko‘pchiligi uch til egasidir”. Chet til – bu xorijiy mamlakat tili. Respublikmizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy) tillari o‘qitilmoqda. Ular ta‘lim muassasalarining o‘quv rejalaridan o‘rin olgan. Barchamizga ma‘lumki nemis tili chet tili fani sifatida II Jahon Urushi davridan so‘ng o‘rganila boshlangan. O‘zbekiston mustaqil deb e‘lon qilingandan keyin, 2012-yil 10-dekabrda imzo

chekilgan 1875-sonli PF gacha nemis tili umumiy orta ta'lim maktablarida chet tili sifatida o'rganilgan chet tillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi umumiy orta ta'lim maktablarida asosan 4 ta chet tili o'rgatiladi. Bular ingliz, rus, nemis va fransuz tillaridir. 2012-yilda chiqqan farmon mahalliy va hududiy mutasaddilar tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi oqibatida xalq orasida chet tili deyilganda faqat ingliz tili degan tushuncha hosil bo'ldi hamda nemis tili chet tili sifatida inkor qilinib, ingliz tili bu eng kerakli chet tili ekanligi, nemis va fransuz tillarining ijtimoiy hayotimizda befoyda tillar ekanligi bot-bot eslanib gapirila boshlandi. Jarayonni bunday rivojlanishi oqibatida minglab nemis va fransuz tili o'qituvchilari ishsiz qola boshlashdi. Ular oldiga maktab rahbarlari tomonidan bu vaziyatdan "chiqish yo'llari" ko'rsatila boshlandi. U ham bo'lsa ingliz tiliga qayta tayyorlov kursidan o'qib kelish. Lekin bugungi kunga kelib bunga barham berildi.

Endilikda yurtimizda chet tillarini o'qinishga talab oshib bormoqda. Avvalari maktablarda faqat ingliz tiliga talab ko'p bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib maktablarda nemis va fransuz tillariga ham talab oshib bormoqda. Ma'lumki yurtboshimiz aytganlaridek "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim"

Bunga yaqqol misol qilib Prezidentimizning " O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori hamda 19.01.2022 yildagi 34-son qarorlariga binoan bog'cha va maktablarda nemis va fransuz tillarini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi asta sekinlik bilan yo'lga qo'yilayotganligini aytishimiz mumkin. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishi va ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini o'rgatishni tashkillashtirildi. Xususan, 2023-yilning sentyabr oyida boshlab har

bir viloyat va tumanlarda maktab rahbariyatining tanloviga ko'ra nemis va fransuz tillaridan darslar o'tilmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi tijorat va kasbiy hayotdagi hamkorlikning kuchayishi, shaxsiy harakatchanlikning o'sishi, nemis madaniyati bilan aloqalarni kengaytirish, talabalar va o'qituvchilar bilan almashish imkoniyatlarining yaratilganligi nemis tili fanini o'rganishga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Shuni aytib o'tish joizki, chet tillarini o'rganish natijasida kommunikativ imkoniyatlaringiz yanada kengayishi, nufuzliroq ishga kirish imkoniyatingizning oshishi, film va kitoblarni original tilda ko'rish va o'qishingiz mumkin. Bundan tashqari dunyoqarashingiz kengayishi, yangi xalq madaniyati bilan yaqindan tanishishingiz va ko'plab do'stlar ortirishingiz mumkin. Xorijiy tilni o'rganibgina, o'z ona tilimizni ko'proq qadrlay boshlaymiz. Unda bolalikdan gapirishni boshlaganimiz uchun, u qanday qurilgani haqida o'ylamaymiz, ko'pincha uning go'zalligini anglamaymiz. Amerikalik olimlar tadqiqot o'tkazib, bir nechta tillarni biladigan kishilarga so'zlarni tushunish bo'yicha topshiriqlar berdi va ularning tomograflarini kuzatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday odamlar faqat bitta tilda gapiradiganlarga nisbatan, o'xshash so'zlarni yaxshi aniqlay oladi. Ushbu qobiliyat turli chalg'ituvchi omillarni bloklab, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi. 2007-yilda Chet tillarni o'qitish bo'yicha Amerika kengashi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot doirasida xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko'proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni umuman o'qimaydigan o'quvchilarga nisbatan, matematika bo'yicha yaxshiroq natijalarni ko'rsatgani aniqlandi. Hayratlanarli tomoni yo'q — boshqa til asoslarini o'rganish mantiqiy fikrlashni ishga tushiradi. Xorijiy tilni o'rganish mohiyati — boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda so'zlashuvchi yoki bu tilni allaqachon o'rganib bo'lgan kishilar bilan shug'ullangan ma'qul.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kelajak avlod har tomonlama barkamol tarbiyalanishi, har sohada yetuk mutaxassis bo'lishi uchun chet tillarini mukammal o'rgatishimiz, dunyoqarashini kengaytirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gafur G‘ulom. Ko‘p tilni bilishning xosiyati // O‘qituvchilar gazetasi,1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi” gazetasining 1989-yil 6-aprel sonida „Ko‘p tilni bilish xosiyati” nomi bilan qayta bosilgan).
2. Jamol Jalolov. “Chet tili o‘qitish metodikasi” – T. :O‘qituvchi, 2012. wordpress.com. Nemis tilining chet tili sifatida O‘zbekistondagi o‘rni.
3. Yangi O‘zbekiston gazetasi.2021- yil 6-may soni 1-2 sahifalar
4. Ahmadova U.X. “Xorijiy tillarni o‘rganish nega muhim?” (maqola). Science and Education, 2021.
5. <https://www.bbc.com>.
6. <https://new.las.iastate.edu>.